


**NAVOIY VILOYATININGNING
CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI**


2019 yil yanvar-fevral oylari

Navoiy viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 812,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 96,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 61,1 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 715,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 1,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 121,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,4 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobjiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.




2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Zarafshon shahri, Navbaxor, Xatirchi, Karmana tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Uchquduq tumaniga to'g'ri kelmoqda.




**Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo
tovar aylanmasi ulushi, (%)**

2018 yil yanvar-fevral



2019 yil yanvar-fevral



Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-fevral oylarida 811,4 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiylajmga nisbatan ulushda) 0,04 foizga ko'paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-fevral oylarida 1,0 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiylajmga nisbatan ulushda) 0,04 foizga kamaydi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 61,1 % ga o`sdi va 96,7 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,9 % ulushiga to`g`ri keladi.

	Jami (mlrd.so`m)	Jamidan			
		Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	812,4	96,7	11,9	715,7	88,1
<i>shahar va tumanlar:</i>					
Navoiy shahar	309,2	91,7	29,7	217,5	70,3
Zarafshon shahar	65,1	1,0	1,6	64,1	98,4
Karmana tuman	126,2	0,6	0,5	125,6	99,5
Konimex tuman	21,9	0,1	0,6	21,7	99,4
Qiziltepa tuman	93,8	1,8	1,9	92,0	98,1
Navbahor tuman	42,0	0,2	0,4	41,9	99,6
Nurota tuman	27,9	0,4	1,5	27,5	98,5
Tomdi tuman	5,3	0,04	0,85	5,21	99,2
Uchquduq tuman	30,9	0,2	0,5	30,7	99,5
Xatirchi tuman	90,2	0,6	0,7	89,6	99,3


Kichik tadbirdorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 715,7 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 1,7 %ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,1 %ga teng kelmoqda.

Joriy yilning yanvar-fevral oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Navbahor (99,6%), Uchquqduq (99,5%), Karmana (99,5%), Konimex (99,4%) va Xatirchi (99,3%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 11,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (29,7 %) va Qiziltepa (1,9 %) tumanida kuzatilgan.




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (**38,1 foiz**), Karmana tumani (**15,5 foiz**), Qiziltepa tumani (**11,5 foiz**), Xatirchi tumani (**11,1 foiz**), va Zarafshon shahri (**8,0 foiz**) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Jumladan, 2019 yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,6 %ni tashkil etib, 21,3 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 91,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Shu jumladan, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1,9 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 16,5 % ga kamaygan), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 19,4 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 2,9 %), tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibidagi ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Zarafshon shahri, Qiziltepa tumani va Xatirchi tumanini misol keltirishimiz mumkin.




**NAVOIY VILOYATININGINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

2019 yil yanvar-fevral oylari


2019 yil yanvar-fevral oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 225,0 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 172,7 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko`ra, 121,3 mlrd. so`mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 martaga oshdi. Ushbu sektoring umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 53,9 %ni tashkil qilmoqda.

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub`ektlari aylanmasining ulushi esa 46,1 % ni tashkil etdi.



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Navbaxor, Konimex tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Xatirchi tumaniga to'g'ri kelmoqda.




Quyidagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahrida va Qiziltepa tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovaraylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 8 ta hududda asosan ulgurji savdo tovaraylanmasi kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan.

Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovaraylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 162,5 mlrd.so'mni tashkil etadi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 barobarga oshdi).


	Jami (mlrd.so`m)	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	225,0	103,7	46,1	121,3	53,9
Navoiy shahar	162,5	41,2	25,4	121,3	74,6
Zarafshon shahar	5,4	5,4	100,0	-	-
Karmana tuman	29,3	29,3	100,0	-	-
Konimex tuman	1,3	1,3	100,0	-	-
Qiziltepa tuman	10,9	10,8	99,8	0,02	0,2
Navbahor tuman	6,5	6,5	100,0	-	-
Nurota tuman	1,4	1,4	100,0	-	-
Tomdi tuman	0,0006	0,0006	100,0	-	-
Uchquduq tuman	1,3	1,3	100,0	-	-
Xatirchi tuman	6,4	6,4	100,0	-	-

**Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo
tovar aylanmasi ulushi, (%)**

2018 yil yanvar-fevral




2019 yil yanvar-fevral



Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-fevral oylarida 224,9 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiylajmga nisbatan ulushda) 0,01 foizga kamaydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-fevral oylarida 0,1 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiylajmga nisbatan ulushda) 0,01 foizga ko'paydi.



Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (**72,2 foiz**), Karmana tumani (**4,8 foiz**) ulgurji savdo tovar ko'rsatdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (0871) 230-84-36